


O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti)
magistratura mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat transport universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «29» 08 dagi 5 - sonli yig'ilishida ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil «9» 09 dagi 302 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy xujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi	4
1.2.1. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari	4
1.2.3. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1 Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar	7
Bibliografik ma'lumotlar	8
Kelishuv varag'i	9

1. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) magistratura mutaxassisligi buyicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari buyicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish soxasi

1.1.1. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti)** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) mutaxassisligi buyicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) mutaxassisligi buyicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.

70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) – "Ishlab chiqarish va ishlov berish" ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, u barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqarmalarida metallarga mexanik ishlov berish texnologiyasini tuzish va yangi texnologiyalarni yaratish, metallarga mexanik ishlov berish mashinalari va jixozlarini yaratish, sozlash, ishga tushirish, texnik xizmat ko'rsatish, ekspluatatsiya kilish, diagnostika va ta'mirlash ishlarini tashkil etish va bajarish xamda detal va uzellarga mexanik ishlov berish usullari bilan ishlab chikarish texnologik jarayonlarini ishlab chiqish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini kamrab oladi.

1.2.2. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida xamda oliy

ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- metallarga mexanik ishlov berishda qo'llaniladigan ishlab chiqarish mashinalari, texnologik jihozlari va asbobsozlik texnikasi ob'ektlari;
- mintaqaviy temir yo'l uzellari;
- metallarga mexanik ishlov berishdagi texnologik jarayonlar, uni ishlab chiqish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, normativ-texnik xujjatlar, standartlashtirish tizimi va sertifikatlash, metallarga mexanik ishlov berishda texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalari.

1.2.3. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyati;
- konsalting xizmati faoliyati.

1.2.4. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) mutaxassisligi buyicha magistrning kasbiy vazifalari:

70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo'l transporti) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi xamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kopseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayoni va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- texnik topshiriqqa muvofiq detal va mashinasozlik konstruksiyalarini uzellarini hisoblash va loyihalash hamda loyihalashning avtomatlashtirilgan standart vositalarini qo'llash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun texnologik jihozlarga xizmat ko'rsatish;
- metallarga mexanik ishlov berish bo'yicha buyumlarini loyihalash uchun dastlabki axborot ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;
- texnologik tizimlar va uskunalar sinovini o'tkazish metodikasini ishlab chiqish;
- mexanik ishlov berishda qo'llaniladigan asbob-uskunalar, mashinalar va mexanik ishlov berishningnamunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va ularni qo'llash;

–uchastka, sex, bo‘lim texnologiyasi bo‘lib ishlash, amaldagi ishlab chiqarish sexini ekspluatatsiya qilish;

–xom ashyo, yordamchi materiallar va mahsulotlarning sifatini nazorat qilish;

–ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;

– mashinalarni ta‘mirlashni tashkil etishi va uning amaliy masalalarini yechish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

– loyihalarni boshqarishi, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi, bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilishi, loyiha jamoasini boshqarishi;

– e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o‘qitishni tashkil etishi va korporativ ma‘lumotlar bazasini rivojlantirishi;

– ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqishi va ularni tatbiq qilishi;

– ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi;

– zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;

– atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish.

Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyatida:

– mexanik ishlov berishda qo‘llaniladigan asbob-uskunalar, texnologik mashinalari va jihozlari ishchi parametrlari va ishchanlik qobiliyatini aniqlash bo‘yicha sinovlarni o‘tkazish;

– bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqishi va tadqiqot qilishi;

– namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqishi va ularni qo‘llashi;

– loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish.

Konsalting xizmati faoliyatida:

– asbob-uskunalar, qurilmalar, mexanizmlar va jihozlar, ularning ishchi qismlari parametrlari va ish holatini tashxis sinovlaridan o‘tkazish;

– mashinasozlik magistr tayyorlash mutaxassisligiga mos bo‘lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo‘yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

– ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish.

2. 70720801-Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (temir yo‘l transporti) ta‘lim mutaxassisligi bo‘yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, texnik muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o‘z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana olish;

- o‘z faoliyatida me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olish, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lish, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatlariga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta'lim sifati va va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tashkilot, korxona va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lish;

- mashinasozlik texnologiyasi bilan bog'liq ishlarni samarali boshqarishda yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirish va mavjudlarini takomillashtirish;

- texnologik mashinalardan samarali foydalanish;

- mashinalarni ta'mirlash texnologiyalarini ishlab chiqish va tahlil qilish hamda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va o'quv dasturi (magistratura dasturi), profil, o'quv davri, ta'lim texnologiyalari, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, loyihalash, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, avtomatlashtirish, ishlab chiqarish, kuzov, elektr jihozlar, aravacha, rama, baza, gidravlik muftalar, tormoz, tortish kuchi, boshqarish va kuch zanjirlari, apparatlar, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILDI:

Toshkent davlat transport universiteti

Rektor  O. Abduraxmanov

202__ yil «__»__
M.O'.



KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi**

Vazir o'rinbosari  A. Muminov

202__ yil «__»__
M.O'.




**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tatbiq etish markazi**

Direktor  Sh. Yakubov

202__ yil «__»__
M.O'.




**"O'zbekiston temir yo'llari" AJ
Personalni boshqarish va kadrlarni tayyorlash
boshqarmasi**

Boshqarma boshlig'i  V. Tuxtaev

202__ yil «__»__
M.O'.



**I. Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti**

Rektor  S. Turabdjanyov

202__ yil "____"

M.O'.

